

MINTAQALAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI (O'ZBEKISTON-QOZOG'ISTON MISOLIDA)

Qudratillayeva Muslima Shukrullo qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,

"Iqtisodiy xavfsizlik" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston-Qozog'iston munosabatlari, hamkorlik aloqalari, mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy-siyosiy yondashuvlar, mamlakatlar rivoji yo'lida o'rnatilayotgan hamkorlik munosabatlari va ularni har ikki davlat iqtisodiyotiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit sozlar: hamkorlik, iqtisodiy o'sish, prognoz, raqobat muhiti, biznes, tashqi aloqalar, shartnomalar.

Abstract: This article provides information on Uzbekistan-Kazakhstan relations, cooperation, economic and political approaches between the regions, cooperative relations being established for the development of the countries and their impact on the economies of both countries.

Keywords: cooperation, economic growth, forecast, competitive environment, business, foreign relations, agreements.

KIRISH

Mamlakatimizda hozirgi kunda olib borilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qarorlar yurtimiz ravnaqiga, iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunga misol qilib, joriy yilning 15-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Qasim-Jomart Toqayev bilan birgalikda mamlakatlar iqtisodiyoti, rivoji yo'lida mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida uchrashuv o'tkazildi. Mazkur muzokarali uchrashuvda transchegaraviy suv obyektlarini birgalikda boshqarish va ulardan oqilona foydalanish to'g'risidagi bitim, bojxona xizmati vakolatxonalarini ochish to'g'risidagi bitim, chegaraoldi hududlarda yerusti radio xizmatlari tomonidan fuqarolik maqsadlarida foydalaniladigan radiochastotalarni o'zlashtirishni muvofiqlashtirish to'g'risidagi bitim, qo'shma harbiy o'quvlarni o'tkazish to'g'risidagi bitim, qo'shma investitsiya platformasini yaratish to'g'risidagi hadli bitim, 2026-2027-yillarga mo'ljallangan turizm sohasida hamkorlik bo'yicha qo'shma harakatlar rejasi, adliya vazirliklari o'rtasida 2025-2026-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturi, tog'-kon sanoatida hamkorlikni rivojlantirish to'g'risidagi memorandum, O'zbekiston Yoshlar ishlari agentligi va "Assambleya jastari" jamoat birlashmasi o'rtasida hamkorlik to'g'risidagi memorandum, sog'liqni saqlash vazirliklari o'rtasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish sohasida o'zaro anglashuv memorandumi, tibbiy sug'urta jamg'armalari

o'rtasida o'zaro anglashuv memorandum, Toshkent shahar hokimligi va Ostona shahar hokimligi o'rtasida hamkorlik bitimi, "O'zbekneftgaz" va "Kazmunaygaz" aksiyadorlik jamiyatlari o'rtasida hamkorlik bitimi kabi masalalar doirasida qo'shma bayonot imzolandi¹.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Taniqli nemis olimi Karl Doytch mintaqani turli yo'nalishda bog'lanadigan hududiy birlik sifatida talqin qilib, uchta asosiy belgisini qayd etadi.

1. Umumiy geografik yaqinlik.
2. Hamkorlikning doimiyligi va intensivligi.
3. Mintaqa tizimi haqidagi umumiy yondashuv².

Shvetsiyalik professor B.Xettne mintaqani ushbu jihatlari mavjudligini ta'kidlaydi:

- tabiiy chegaralar bilan cheklangan geografik va ekologik birlik (masalan, Yevropa Atlantikadan -Uralgacha);
- ijtimoiy tizim sifatida ijtimoiy, siyosiy, madaniy va iqtisodiy tartibotning translokal munosabatlarda aks etishi;
- ichki yaxlitlikning mavjudligi, birdamlik yoki qismlar bilan genetik bogliqlikning mavjudligi;
- xalqaro munosabatlarda alohida maqomga egaligi va tan olishi³.

Rossiyalik tadqiqotchilar A.A. Sergunin va L.Remkeldalar talqiniga muvofiq, mintaqa superatama bo'lib, aholi, hudud, umumiy tarix, tabiiy sharoit va muammolarni echish xarakterini o'z ichiga oladi⁴.

"Mintaqaviy hamkorlik" tushunchasi haqida ham turli qarashlar mavjud. Rossiyalik tadqiqotchi Olga Butorina mintaqaviy hamkorlik to'grisida "globallashuv sharoitida dunyo stratifikatsiyasi jarayoniga bir guruh davlatlarning anglangan faol ishtiroki modelini o'zida aks ettiradi, degan kontseptsiyani ilgari suradi⁵.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolada tahlilning ilmiy-uslubiy, qiyosiy usullaridan foydalanildi. Xorijiy tadqiqot ishlari o'rganilib, ulardagi dolzarb muammolar va yechimlar bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston va Qozog'iston Respublikalari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlik aloqalari natijasida yil boshidan buyon tovar ayirboshlash 4 milliard dollarga yetgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Bu ko'rsatkichni 2030-yilgacha 10 milliardga yetkazish maqsad qilingan. Buning uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan, savdo va investitsiya

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/8665>

² Deutsch, K. W. (1957). Political Community and the North Atlantic Area. Princeton University Press

³ Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. T.:«Barkamol fayz media»,2017. - 292 bet.

⁴ Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. T.:«Barkamol fayz media»,2017. - 292 bet.

⁵ <https://www.bruegel.org/people/olga-butorina>

bitimlarining salmoqli to'plami shakllantirilgan, "O'zKazTreyd" kompaniyasi ta'sis etilgan, ishbilarmon doiralar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri hamkorlik mexanizmlari yo'lga qo'yilgan. Tashrif doirasida "Markaziy Osiyo" xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazi hamda 1,3 milliard dollarlik qator muhim loyihalar ishga tushiriladi. Bundan tashqari, umumiy qiymati 8 milliard dollardan ziyod bo'lgan, jumladan, kimyo, geologiya, infratuzilma, logistika, agrosanoat va ko'plab boshqa sohalardagi loyihalarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli Sanoat kooperatsiyasi dasturi tayyorlandi⁶. 2025-yilda O'zbekiston YaIM o'rtacha 7,2% dan 7,6% gacha o'sdi, bu o'sishga xizmatlar va sanoat sohalari sezilarli hissa qo'shdi. Yil boshidan hozirgacha, yanvar-sentabr oylarida YaIM 1 303 702,1 mlrd so'mni tashkil etdi⁷. Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik munosabatlari qanchalik yaxshilangani sari har bir mamlakatning iqtisodiyotiga katta foyda kirib keladi. O'z o'zidan ma'lumki YaIMda iqtisodiyotning turli sektorlarining ulushi ham ortib boradi. Natijada esa aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar ham oshib boradi. Bu esa mamlakatning iqtisodiy samaradorligini baholab beradi.

XULOSA

Mintaqaviy hamkorlik munosabatlari har bir mamlakat uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki iqtisodiy kelishuvlar imzolangandan so'ng mamlakatlarning tovar ayirboshlashi keskin ortadi va bu savdo hajmini oshiradi. Investitsiyalarni jalb qilish orqali esa bozorlarga kengroq kirish ta'minlanadi va iqtisodiy samaradorlik oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://president.uz/oz/lists/view/8665>
2. Deutsch, K. W. (1957). Political Community and the North Atlantic Area. Princeton University Press
3. Muhammadsidiqov M.M. Xalqaro mintaqashunoslik. O'quv qo'llanma. T.: - «Barkamol fayz media», 2017. - 292 bet.
4. <https://www.bruegel.org/people/olga-butorina>
5. <https://president.uz/oz/lists/view/8662>
6. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/22/yim/>

⁶ <https://president.uz/oz/lists/view/8662>

⁷ <https://www.gazeta.uz/oz/2025/07/22/yim/>